
“QANJIRG‘A” MFY AHOLISI TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA‘MINLANDI

Mahalla ahli necha yillardan buyon orziqib kutgan toza ichimlik suvi xonadonlarga yetib keldi. Mahallaning Furqat ko‘chasida yangi suv qudug‘i qazildi, suv minorasi, suv nasosi hamda transformator o‘rnatilib, 5 km 300 metrga suv tarmog‘i tortildi.

Asosiysi, suv minorasi oldida tozalov (filtr) qurilmasi ham o‘rnatildi. Bu ishlar uchun respublika byudjetidan 2 mlrd. 649 million so‘m mablag‘ sarflandi. Natijada MFY hududidagi 739 ta xonadonning 500 tasi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlandi.

– Qarangki, necha yillik muammomiz hal bo‘lib, ko‘chamizga ichimlik suvi keldi, – deydi Furqat ko‘chasida yashovchi fuqaro Abduhamid Abdullayev. – Shu kunga qadar 5-6 chaqirim masofadan mashinalarda olib kelib ichar edik.

2023-08-03 16:50:00